



Musiqa darslarida o'quvchilarda millatlararo totuvlik hissini shakllantirtish

O'tamurodova A.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-bosqich magistranti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda global muammolardan biri bulgan millatlararo totuvlik goyalari haqidagi ma'lumotlar keltirirlgan. Shuningdek ushbu go'yani qanday qilib maktab davrida bolalar ongigiga singdirish, bu borada musiqa darslari ahamiyati qay darajada mazmun-mohiyatga ega ekanligi. Musiqa darslarida qardosh xalqlar qo'shiqlari orqali millatlararo totuvlik g'oyalarini singdirishning ayrim usullari haqidagi fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** millat, qadriyat, millatlararo totuvlik, xalq, elat

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об идее межнационального согласия, которая на сегодняшний день является одной из глобальных проблем. Также ведется дискуссия о том, как внедрить эту идею в сознание детей в школьные часы, и о важности уроков музыки в этом отношении.

**Ключевые слова:** нация, ценность, межнациональное согласие, народ, этнос

**Annotation:** This article provides information about the idea of interethnic harmony, which today is one of the global problems. There is also a discussion about how to plant this idea in the minds of children during school hours, and the importance of music lessons in this regard.

**Keywords:** nation, values, interethnic harmony, people, nation

Millatlararo totuvlik- millatlararo ahillik, xalqaro do'stlik,: milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan biri; muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha. Dunyoda chuqr o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi davrda Yer yuzining turli nuqtalarida millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Ushbu ziddiyatlarni bartaraf



qilish, ularning oldini olish kishilik jamiyatni tarixiy-tadrijiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib qolmoqda. Bu amaldagi milliy siyosat modellarining mohiyati, ularning mafkuraviy asoslarini ilmiy-qiyosiy o'rganishni dolzarb qilib qo'yemoqda. [1.45-b].

Millatlararo munosabatlarning ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishga keng ta'sir o'tkaza boshlashi global, mintaqaviy va hududiy geosiyosatda etnik omil rolining oshishiga olib keldi. —Bu hol, davlatning va mintaqaning xavfsizligiga taxdid solishi mumkin bo'lgan etnik va millatlararo mojarolar kelib chiqqudek bo'lsa, ularning oldini olish maqsadida mazkur jarayonlarni muntazam ravishda ijtimoiy taxdil etib borishni zarur qilib qo'yadi. [2.33-b].

Maktab o'quvchilar o'rtasida millatlararo totuvlik hissini tarbiyalash zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarida tolerantlikning yetakchi g'oyalarini singdirish o'qituvchilarning bilimiga sa'y-harakatlariga pedagogik jihatda shakllanganligiga bog'liq. [3.9-b].

Ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida musiqa alohida o'rinni tutadi. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadimiyligi kuy va qo'shiqlar ajdodlarimiz ma'naviy hayotidan dalolat beruvchi ruhiy omildir. Ota-bobolarimiz musiqa insonni kamolotga undovchi kuch deb bilganlar. Eng ta'sirli va eng ommaviy ma'naviy ozuqa vositalari sifatida musiqaga yuksak ijtimoiy maqom berilgan.

Asarning musiqiy tuzilishi, xarakteri, ifoda vositalari uning xayotdagi o'rni jihatidan o'rganiladi va musiqa tinglash faoliyati quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Asarni tinglashga bolalar diqqatini jamlash va asar haqida o'qituvchining kirish so'zi.
2. O'qituvchi ijrosida yoki texnik vositalar yordamida asarni tinglashni tashkil etish.
3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy-badiiy va matniy tahlil qilish.
4. Asarni to'laligicha qayta takror tinglash, so'ng asar haqida o'quvchilarning umumiy badiiy taassurotlari yuzasidan suhbat uyushtirish[4.14-b].

Ma'lumki, qo'shiq, musiqa insonni har jihatdan tarbiyalaydi, uni ezgulikka, yaxshilikka undaydi. Qo'shiq, musiqa, ko'pincha, insonda yashirinib yotgan qobiliyat va sifatlarni yuzaga chiqarishga, kishi xarakteridagi salbiy sifatlardan qutulishga yordam beradi. Qo'shiqchilik san'ati orqali milliylik, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikka



erishish ham mumkin. Qo'shiq-musiqa kishida sog'lom turmush, ijodiy kayfiyat yehtiyorini uyg'otadi. Musiqa yordamida inson iste'molga qaramlik kayfiyatidan ham xalos bo'ladi. Shu bilan birga, odamlarga ijodkorlik, iste'dodni namoyon etish kabi ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ham yaratadi.

O'zbekistonda yashayotgan xalqlarning har xil millatga mansubligi bu jarayonning o'ziga xos bo'lgan, har qanday sharoitda inobatga olinishi shart bo'lgan alohida xususiyati hisoblanadi. Ular orasida milliy totuvlik va bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish uchun rus, qozoq, qirg'iz, tojik, qoraqalpoq va turkman tillarida ijro etiladigan qo'shiq-kuylarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Har xil millatga mansub bo'lgan o'quvchilarning o'rganishlari nazarda tutilgan har bir qo'shiq, albatta u yoki bu bola uchun ruhan yaqin va uning ona tilida ijro etiladi. Bu qo'shiqlarni hamma birdan tushunishi yoki birgalikda ijro eta olishlari uchun hamma birgalikda qo'shiq mohiyatigi kirish taqozo etiladi.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya ishlari yetti tilda olib borilishi ma'lum. O'zbek va rus tilida ta'lim-tarbiya beradigan maktablar sirasida o'qitish ishlari turkman tilida olib boriladigan maktablar ham, turkman tilida so'zlashuvchi butun boshli hududlar ham mavjud. Turkman tilidagi qo'shiqlarni o'rganish ham bu millatga mansub bolalarning ma'naviy kamolotigi ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan "Kapalak" qo'shig'ini o'rganishni tavsiya etish mumkin. Ma'lumki, kapalaklar o'ta nafis va nozik yaratiq. Ularga hech kim befarq bo'lmaydi. Bunday munosabatlarda millatning ham, diniy e'tiqod yoki irqning ham hech qanday ahamiyati yo'q. Shu ma'noda, she'r matnini to'garak a'zolari orasidan turkman millatiga mansub bolalardan o'qib berishini so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu, avvalo, she'r mutolaasi ifodaliligin, talaffuzning to'g'ri va ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi. Qolaversa, boshqa millatga mansub bolalarning ham matn mohiyatiga imkon qadar chuqurroq kirib borishlariga zamin tayyorlaydi. Ayni zamonda, qo'shiqning shiradorligi va tinglovchi ruhiyatiga yetib borshiga asos bo'ladi. Qo'shiq matni bilan tanishilganidan so'ng savol va topshiriqlar ko'magida birgalikda uning mazmuni ustida ishlanadi. 1. She'rning birinchi bandidagi kapalakka xos bo'lgan xususiyatlarni toping. Bu jarayonda banddag'i "Owadanja kebelek" (go'zal kapalak), "jan elek" (jonsarak), "Uçdyň mawy asmana" (moviy osmonga uchmoq) singari so'z va so'z birikmalariga asoslaning. 2. She'rning ikkinchi bandiga diqqat qiling. Kapalak faqat moviy osmonda qanot qoqadimi?



Kapalak qaerlarga qo'nishi mumkin? 3. She'rning uchinchi bandidagi: "Şatlan, gaýgy-gussasyz, Meniň göwnümi aç sen" (Har yonga uchib shodlan, mening ko'nglimni och, ko'nglimni quvontir) misralariga diqqat qiling. Kapalakning uchishi bilan inson ko'ngli orasida qanday aloqa bo'lishi mumkin? 4. She'rdagi: "Güyze meñzeş kebelek, Keşbiňe haýran her kim" (Kuya monand kapalak kasbingga xayron har kim) misralarida kapalakning kuya o'xshatilishi sabablari haqida o'ylab ko'ring. 5. She'rning oxirgi bandidagi "Meñkä meñzeş köynegi" (ko'y lagi)ni qanday tushundingiz?

### **Kebelek**

Owadanja kebelek,  
Uçdyň mawy asmana.  
Eý jan elek jan elek,  
Ganat kakýaň her ýana.

Eý jan elek jan elek,  
Ganat kakýaň her ýana.  
Mawy asmana çykyp,  
Ganatlaryny ýaý sena.

Turkman tili turkiy xalqlardan birining ona tili hisoblanadi va uni tushunish badiiy to'garak a'zolaridan ortiqcha zo'riqishni talab qilmaydi. Uni birgalikda ijro etish, talaffuzdagı qiyinchiliklarnı bartaraf etishda turkman bolalarning yordamiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qozoq xalq qo'shiqlari ham o'zining o'ynoqi ohangi bilan tinglovchini rom etadi, ruhiyatini ko'taradi. Buni "Zamanым" (Mening davrim) qo'shig'i misolida yaqqol ko'rish mumkin. Faqat ijrochi qo'shiqni kuylayotganda shu ruhni bera bilsa bas. Buning uchun yana asar matni didaktik tahlilga tortilishi maqsadga muvofikdir: 1. Qo'shiqning birinchi baytidagi "Ayt degende өлеңди аутыр salmay Aqын jigit nesine jaltaqtayды" (Ayt deganda o'lanni ayta qolmay Oqin yigit nimaga taltanglaydi?) misralariga tayanib qo'shiq kim tomonidan aytيلاتغانىنى va kimga yo'naltirilganini aniqlang. 2. She'rning ikkinchi bandidagi "Jigit attan kylasa qыz tabalar" (Agar yigit otdan yiqilsa qizlar kuchayadi, mazax qiladi) misrasidagi ma'noni o'z so'zlarining bilan tushuntirib bering. 3. «On bes penen otyszdyň arasında Qыday ýrsын jigitti talpynbag'an» (O'n besh bilan o'ttizning orasida Xudo ursin yigitni talpinmagan) satrlarining mazmunini chaqing. Ularda nima haqida gap



ketyapti? 4. “Рысыңсызған жигиттер толыр жатыр Өз басынан пайдасы артылмаған” (О‘з ишінде пішиқ жиғіттер тоғында жеткізу О‘з манфаат, фойдалыдан ортталған) місраларі кимге қарастырылған? Бұл сатрларда жиғіттер мақталаудың мүмкіншіліктерінде көрсетілген? Німа деб о‘ылсай?

## Zamanым

Әuel бастаан yetikti nəl saqtaydy  
Yerkin jyyrik bəygide alshaqtaydy  
Ayt degende өлеңди аутыр salmay  
Aqын jigit nesine jaltaqtaydy

Әriyalar yendeshe jəriyalar  
Jigit attan kylasa qız tabalar  
Qыгық јыл qыргын bolsa da ajaldы өлер  
Аттың basын tarpay shap bozbalalar

Qo‘sinqchilar asarning mazmun-mohiyatiga kirib olganlaridan so‘ng uning ijrosini mashq qiladilar. Qo‘sinqning har satriga singdirilgan ruhni anglagan qo‘sinqchi ijroda buni ifodalay biladi. Bu ifodani tinglovchi ham tuyadi.

O‘zbekistonda, ta’lim-tarbiya olayotgan qirg‘iz millatiga mansub fuqarolarning farzandlariga ham o‘z ona tilida qo‘sinq ijro etish katta ma’naviy ozuqa beradi. Shu ma’noda, mehribonlik uylari qoshida tashkil etilgan badiiy to‘garaklarda qirg‘iz tilida qo‘sinq ijro etish uchun qirg‘izlarga xos bo‘lgan milliy ruhni anglash va qo‘sinq ijrosida buni chiqara bilish shart. Aks holda qo‘sinq tinglovchiga yetib bormaydi. Ya’ni tinglovchi ma’naviyatiga zavq ham bermaydi, ruhiyatini ham ko’tarmaydi. To‘garak a’zolari uchun tavsiya etiladigan qo‘sinq «Кыргыз ел» («Qirg‘iz eli») deb nomlanadi. Bu qo‘sinqni ham, uning ijrosini mashq qilidshdan oldin, didaktik tahlilga tortish maqsadga muvofiqdir: 1. She’rning dastlabki ikki misrasiga: “Кыргыз elim, bar bol, bar bol, Кыргыз elim, bir bol, bir bol» diqqat qiling. Ularda nima haqida gap ketyapti? Kim, kimni, nimaga chaqiryapti? 2. “Кыргыз болуп jaralgan соң, Намысыңда bek bol, bek bol!” deganda kimga murojaat qilinyapti? «Nomusingga bek bo‘l» deganda nima nazarda tutilyapti deb o‘ylaysiz? Bu murojaat kimga қарастырылған deb o‘ylaysiz? 3. “Кыргызстаныма асылба, Кыргызстан менеки!” сатрларидеги chaqiriq kimga yo‘naltirilgan deb o‘ylaysiz? 4. “Kim bolosuң, kimiң bolbo, Sıyylagын mekenimdi” сатрларини o‘z so‘zлaringiz bilan sharhlab bering. Siz uni



qanday tushundingiz? 5. She'rning keyingi bandidagi "Сыуымды көр, ет төргө, Бирок сыйла elimdi" misralarga asoslangan holda so'z sohibining eli va vataniga muhabbatini his qilishga urinib ko'ring. Vatan, el, yurt tushunchalarining mohiyatini oching. 6. She'rdan qirg'iz xalqiga xos bo'lgan yetakchi milliy xususiyatlarni aniqlang.

Shu tariqa asarning mohiyatiga kirib olingandan so'ng uning ijrosi mashqiga o'tiladi. Qo'shiq ijrosida so'zdagi milliy g'urur, faxr hissini saqlay bilish va ohangda, ijroda buni, avvalo, qo'shiqchining o'zi his qilishi va bu tuyg'ularni tinglovchiga ham "yuqtira" bilishi shart. Shundagina badiiy to'garak a'zolari o'z muhlislariga ega bo'ladilar.

### **Кыргыз ел**

Кыргыз elim, bar bol, bar bol,  
Кыргыз elim, bir bol, bir bol.  
Кыргыз elim, alga, alga!  
Кыргыз bolup jaralgan son,

Намызыңа bek bol, bek bol!  
Кыргызстаныма асылба,  
Кыргызстан меники!  
Kim bolosuň, kimiň bolbo,  
Сыялагын мекенимди.

Chalынба, chыrak saga,  
Koyup berem alдыңа.  
Сыуымды көр, ет төргө,  
Birok сыйла elimdi.  
Abayla, sak bol, [6.]

Qoraqalpoq xal qo'shiqlarining ko'pchiligi o'z mazmun-mohiyati, ijro uslubi bilan o'zbek xalq qo'shiqlariga juda yaqin turadi. Shunday qo'shiqlardan biri "Jononim"dir. Uni ijrochi ham, tinglovchi ham juda tez va oson o'zlashtiradi, oson yod oladi. O'zbek qo'shiqchi ham bemalol uni ayta oladi. Faqat qo'shiqdagi ruhni, oshiqning izardoblarini, hijron azobini ijroda chiqara bilish uchun qo'shiqchi so'zning mohiyatiga kirishi, buning uchun esa so'z didaktik tahlilga tortilishi joiz: 1. Hijronda qolgan oshiqning holati qaysi satrlarda va qaysi so'zlarda kanday ifodalanganini aniqlang. Ma'shuqaning "Sollona-tovlana chiq"ishini qanday tasvvur qilasiz? 2. "Gumburleydi gohi dutor qo'limda"ni qanday tushundingiz? Bu, sizningcha, nimadan dalolat beradi? 3. Oshiqning ma'shuqaga qarata



aytgan: “Ko‘vlimda xat etib, tutdim so‘zingdi” misrasini qanday tushundingiz? Bu, Sizningcha, nimadan dalolat beradi? 4. She’rda ifodalangan hijronning iztiroblarini toping. Ularga o‘z munosabatingizni bildiring. 5. Nima deb o‘ylaysiz, hijron, firoq, ayriliq azoblari tasvirlangan she’rga bunday o‘ynoqi kuy munosibmi? So‘z bilan kuy bir-biriga mutanosibmi? Fikringizni asoslang.

### **Jananim**

Ey, sen, qulaq salg‘in mening ohimga!  
 Oh uramen sen tusgenda yadima!  
 Toqat etolmovdim – keldim bog‘inga,  
 Sollona-tovlana bir shiq, jananim, jananim!  
 Keshe-kunduz ko‘zim sening jo‘lingda,  
 Gumburleydi gohi dutor qo‘limda.  
 Kelib turmin sening barar yo‘linga, [7].

Asar mazmuni ustida amalga oshirilgan bu kabi suhbatdan so‘ng mazkur qo‘shiqning o‘zbek va qoraqalpoq qo‘shiqchilari tomonidan ijro etilgan variantlari bilan tanishiladi. Har ikkala ijrochining ifoda uslubi taqqoslanadi, nozik jihatlariga diqqat qaratiladi. Shu kabi bilimlar asosida uning ijrosiga kirishiladi, mashq qilinadi.

Musiqa darslarida har xil xalqlar qo‘shiqlarini ijro etishda musiqa ta’limi metodikasi ilmida yetakchilik qiladigan bir qator xususiyatlarga amal qilish taqozo etiladi. Musiqa metodikasida qo‘shiq kuylash holati, ashulachilik nafasi, ovoz xosil qilish, sozlanish, ansambl, talaffuz muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘shiq kuylashda ijrochilarining o‘tirishi va turish xolatiga ham e’tibor beriladi. O‘tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo‘l va oyoqlarning turishiga ham e’tibor qaratiladi va muntazam ravishda nazorat qilinib, eslatib turiladi. Ijro jarayonida gavdani to‘g‘ri tutish ham talab etiladi. O‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri turish, o‘tirib kuylaganda suyanchiqlarga suyanmaslik, yelkalarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko‘tarmasdan, bo‘yin va boshni to‘g‘ri ushslash, qo‘llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo‘yib engashmasdan o‘tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin qo‘yish kabi holatlarga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bularning barchasiga musiqa ta’limi metodikasi ilmida alohida ahamiyat beriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz joizki millatlar o‘rtasida totuvlik, do’stlik rishtalarini mustahkamlashda musiqa muhim vositalardan biri sanaladi. Shuningdek musiqa



darslarida qardosh xalqlar qoshiqlaridan urganish o'quvchilar o'rtasida boshqa millatlarga nisbatan hurmat, ehtirom, ularning urf-odatlariga nisbatan ijobiy dunyoqarashni paydo bo'lishga muhim omil yaratdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elektron manba: Ya.Shodiyeva, G.Qodirova. "Maktablarda ijodiy-madaniy muhit takomillashadi". <http://uchildiz.uz/%, -2021>
- 2.B.Qodirov, O.Yakupova. Sh. "Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar uchun metodik qo'llanma". –T.:, 1921.
3. Нишонова З.Т. Ижодий мустақил фикрни тарбиялашда ўқитувчининг ролини янада ошириш // Таълим ва тарбия, 2001. – № – 1-2.
- 4.Elektron manba: B. Mustafoev. Umumiy o'rta talim maktablarida musiqa\_ (1).pdf
- 5.Elektron manba: [www.youtube.com › watch.gori,gori-moya-zvezda](http://www.youtube.com/watch.gori,gori-moya-zvezda)
- 6.Elektron manba: <https://www.lex.uz/acts/1323062>
- 7.Elektron manba:<https://www.google.com/search?q=69i57j33i160.9148j0j71>